

**“Hududiy elektrarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati barcha ovoz beruvchi
oddiy aksiyalari Yagona aksiyadorining 7-sonli
Q A R O R I**

2024-yil “2” oktabr

Toshkent shahri

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58,59-moddalariga va “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi 84 680 814 487 dona odiy aksiyalarning yagona aksiyadori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan quyidagi masalalar yuzasidan qabul qilindi:

Ilhom Nimatullayev va Andrew Moncourni “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan, jamiyat kuzatuv kengashining va ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiradi.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Kuzatuv kengashi tarkibi Jamiyat Yagona aksiyadorining 2024-yil 26-iyundagi 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zosi M. Nimatullayev o‘z arizasiga binoan, ushbu vazifani bajarishdan ozod qilinishini so‘radi.

Shuningdek, Jamiyat Kuzatuv kengashi Mustaqil a‘zolari jalb qilishda ishtirok etgan “Strikitsa Consulting” xalqaro rekruting kompaniyasi ma‘lumotiga ko‘ra Kuzatuv kengashi mustaqil a‘zo sifatida saylangan Andrew Moncur ham o‘z ixtiyori bilan ushbu vazifani bajarishdan ozod qilishni so‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi odiy aksiyalari Yagona aksiyadori, **qaror qiladi:**

1. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolari Ilhom Nimatullayev va Andrew Moncour Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarilsin.

2. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash Jamiyat Boshqaruvi ijro organi zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirining
o‘rinbosari**

 **X.B. Mustafayev**